

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 165 (1226), 2024-yil 17-avgust, shanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
F A R M O N IIJTIMOIY MUNOSABATLARNI
HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNING
BARQARORLIGINI TA’MINLASH, SIFATI VA
SAMARADORLIGINI OSHIRISH
CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasi ijrosini samarali ta’minlash, norma ijodkorligi jarayonida “aqli tartibga solish” usullaridan keng foydalanish hamda ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish barqarorligini ta’minlash, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining tartibga solish ta’sirini baholash hamda qonunchilik hujjatlarini natijadorligini monitoring qilishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini rivojlantirish maqsadida:

1. Adliya vazirligi tomonidan manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda 1 860 ta qonunchilik hujjatlarini ekspertizadan o‘tkazilganligi va shundan 243 ta hujjatda 350 ta o‘z ahamiyatini yo‘qotgan, amalga oshirish mexanizmlari bilan ta’minlanmagan normalar va huquqiy bo‘shliqlar aniqlanganligi hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha tegishli takliflar ishlab chiqilganligi ma’lumot uchun qabul qilin.

Quyidagilar:
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga moliya, kredit,

bank, tadbirkorlik faoliyati, ijtimoiy himoya, tashqi iqtisodiy aloqalar hamda bojxona ishi sohalarida qonunchilikni takomillashtirishga yo‘naltirilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar 1-ilovaga muvofiq;

Qonunchilik hujjatlaridagi o‘z ahamiyatini yo‘qotgan, amalga oshirish mexanizmlari bilan ta’minlanmagan normalar va huquqiy bo‘shliqlarni bartaraf etish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining va O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining o‘z ahamiyatini yo‘qotgan ayrim hujjatlarini 3-ilovaga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

Vazirlar Mahkamasi bir oy muddatda qonunchilik hujjatlaridagi o‘z ahamiyatini yo‘qotgan va amalga oshirish mexanizmlari bilan ta’minlanmagan normalar, huquqiy bo‘shliqlar hamda korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ni tasdiqlasin.

2. 2024-yil 1-oktabrdan boshlab, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tartibga solish ta’sirini baholashning (keyingi o‘rinlarda — baholash) soddalashtirilgan va kengaytirilgan tartibi joriy qilinsin. Bunda:

a) soddalashtirilgan tartibda loyiha ishlab chiqilishidan oldin quyidagi tartibga solish vositalari baholanadi va baholash natijalari yuzasidan Adliya vazirligining dastlabki xulosasi olinadi:

jismoniy va yuridik shaxslarga majburiyat, talab, taqiq, javobgarlik yoki boshqa cheklolarni belgilash (keyingi o‘rinlarda — talablar), ularni o‘zgartirish yoxud talablarga rioya qilishni yoki ularni bajarishni ta’minlash bilan bog‘liq ta’sir choralarni qo‘llash;

tadbirkorlik subyektlariga taqdim etilayotgan imtiyoz, preferensiya va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning boshqa turlarini joriy qilish, ularning ta’sir doirasini kengaytirish yoki qisqartirish;

► Davomi 2-betda

TRENERLAR MALAKA OSHIRDI

Mamlakatimizda muhim siyosiy jarayon — Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy kengashlar deputatlari sayloviga qizg‘in hozirlik ko‘rilmoqda. Markaziy saylov komissiyasi tomonidan Konstitutsiya va Saylov kodeksida belgilangan muddatlardan kelib chiqib, 26-iyuldan Qonunchilik palatasi deputatlari va mahalliy kengashlar deputatlari saylovi bo‘yicha saylov kampaniyasiga start berilib, kalendar reja tasdiqlandi. Saylovni o‘tkazish uchun 75 ta bir mandatli saylov okrugi tuzildi.

SAYLOV
2024
27-OKTABR

MENING TANLOVIM — OBOD VATANIM!

Saylovni milliy qonunchilimiz va xalqaro andozalar asosida, yuqori saviyada uyushqoqlik bilan tashkil etishda tashkilotchilar faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, ularning bilim, malaka va tajribasini yanada boyitish maqsadida Markaziy saylov komissiyasi

tashabbusi bilan saylov komissiyalari a’zolari malakasini oshirishga oid konsepsiya asosida respublika trenerlari uchun o‘quv-uslubiy mashg‘ulot tashkil etildi.

► Davomi 2-betda

Tadbirkor minbari

E’TIBORDAN KO‘NGLIM
TOG‘DEK KO‘TARILDI

Bir necha kundan buyon yaqinlarim, do‘st-birodar, hamkasblarimning tabrik va iliq fikrlari qurshovida yashayapman. Oddiy tadbirkorning mehnat va izlanishlari e’tirofga munosib topilganidan minnatdorman. To‘g‘risi, bunday e’tibor, rag‘batni kutmagan edim.

► Davomi 2-betda

Ehtirom, hurmat-izzat o‘z-o‘zidan kelmaydi. Bundan yetti-sakkiz yil avval bitta loyihani ishga tushirishning o‘zi bo‘lmadi. Buning uchun turli to‘siq, qog‘ozbozliklar ortidan yillab sarson bo‘lishimizga to‘g‘ri kelardi. Ishlab chiqarishga sarmoya kiritmoqchi bo‘lgan investorlarning huquq va manfaati ham qonun bilan to‘la himoyalangan edi. Zarur infratuzilma tarmoqlari haqida, gapirish ortiqcha. Endi hammasi o‘zgardi. Ishlayman deganga barcha sharoit, imkoniyat, imtiyozlar berilyapti.

Prezidentimiz bizni nafaqat tadbirkor, balki davlat va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shayotgan, aholi turmush farovonligini oshirish, bandligini ta’minlash, hududlar obodligi yo‘lida samarali xizmat qilayotgan islohotchi sifatida qadrlab, hurmat ko‘rsatib kelyapti. Har yili tadbirkorlar bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri muloqot qilish tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Parrandachilik uchun zarur ozuqa bazasini yaratishga ekin maydonlari ajratish eng og‘irliq masalalardan biri bo‘lgan. Bu, tabiiyki, soha rivoji, mahsulot tannarxi va sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatib kelardi. Bugun ayni muammolarga barham berildi.

Bizning suhbat

QISHLOQ XO‘JALIGI:
ILM VA INNOVATSIYA
YAXSHI NATIJAGA ERISHISHNING
ENG TO‘G‘RI YECHIMI

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishning eng qadimiy tarmog‘i bo‘lish bilan birga har qanday davrda insoniyatning kundalik hayotida muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Kun sayin ko‘payib borayotgan dunyo aholisini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlashga alohida e’tibor qaratilayotgan hozirgi vaqtda ham agrar soha jahon iqtisodiyotida katta o‘rin tutadi.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda qishloq xo‘jaligini isloh qilish yo‘lidagi sa’y-harakatlar, yangi davr dehqon-u fermerlari, tomoqqachilar-u tadbirkorlariga berilayotgan imkoniyatlar, yer-u suvdan foydalanish borasida ko‘rilayotgan chora-tadbirlar ayni shu maqsadga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Eng ulug‘, eng aziz bayramimiz arafasida O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi sohasidagi ishlarni tahlil va sarhisob qilish niyatida qishloq xo‘jaligi vaziri, biologiya fanlari doktori, akademik Ibrohim ABDURAHMONOVga savollar bilan murojaat qildik.

— Ruxsatingiz bilan suhbatimizni bir oz oldinroqdan boshlasak. Biz bir paytlar poytaxtimizda o‘tkaziladigan Paxta va

to‘qimachilik yarmarkasini boshqacha qarshi olardik. Mazkur tadbirda nechta vakil ishtirok etgani-yu uning doirasida qancha shartnoma tuzilgani xususidagi xabarlarini katta mamnuniyat bilan qabul qilardik. Bugun sohadagi ishlar ko‘lami va yo‘nalishlari tubdan o‘zgardi. Chunki O‘zbekiston xorijga paxta tolasi eksport qilish o‘rniga qo‘shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishga katta e’tibor qaratmoqda. Qishloq xo‘jaligidagi mana shunday tub o‘zgarishlarning sabab va natijalari haqidagi fikringiz bilan o‘rtoqlashsangiz.

— Iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq suv tanqisligi, yer degradatsiyasi, qurg‘oqchilik, sho‘rlanish kabi omillar agrar sohaga ta’sirini o‘tkazmasdan qolmadi. Iqlim o‘zgarishining

salbiy ta’siri sezilib turgan, aholi soni kundan kunga ko‘payib borayotgan bir paytda yangi ish o‘rinlari yaratish, aholini sifatli oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan ta’minlash masalalari dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun agrar tarmoqda kechiktirib bo‘lmaydigan islohotlarni amalga oshirish, sohada qo‘shilgan qiymat zanjirlari orqali yurtodoshlarimiz uchun yangi ish o‘rinlarini yaratish vazifasi qo‘yildi. Natijasini esa o‘zingiz ko‘rib turibsiz. Uzoq o‘tmishni qo‘ya turing, mustaqilligimizning dastlabki yillarida, hatto bundan 10 yillar oldin ham qishloq odamlari erta bahordan to kech kuzgacha paxta dalasidan beri kelmasdi.

► Davomi 3-betda

AKADEMIK MOBILLIK

Zamonaviy ta’lim sifatini yuksaltiruvchi omil

Bugun dunyo markazlashgan va rejalashtirilgan ishlab chiqarish jarayonidan global sanoat jamiyatiga o‘tmoqda. Ta’lim tizimiga Yevropa universitetlari integratsiyalashuviga olib kelgan Bolonya jarayoni joriy etila boshladi. Natijada Sorbonna deklaratsiyasi qabul qilinishi bilan Yevropa davlatlari oliy ta’limini isloh qilish asnosida yangi davr boshlandi. Bu ta’lim to‘g‘risidagi hujjatlar, daraja va malakalarni solishtirish, qiyoslashni ta’minladi.

► Davomi 5-betda

ENERGETIKA TARMOG‘I:
YO‘QOLAYOTGAN MONOPOLIYA

Ishonchli, xavfsiz hamda barqaror elektr ta’minoti tizimini yaratishga xizmat qiladi(mi?)

4

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining F A R M O N I

IJTIMOY MUNOSABATLARNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNING BARQARORLIGINI TA’MINLASH, SIFATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH CHORA-TADBIRLARI TO’G’RISIDA

Boshlanishi 1-betda

b) kengaytirilgan tartibda quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari baholanadi: soddalashtirilgan baholash natijalari bo'yicha iqtisodiy, ijtimoiy va atrof-muhitga ta'siri darajasi yuqori deb topilgan loyihalar;

Oliy Majlis palatalari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasi topshiriqlari hamda baholash sohasidagi vakolatli organlar, jamoatchilik va boshqa manfaatdor tomonlarning taklifiga ko'ra kengaytirilgan baholashdan o'tkazilishi lozim deb topilgan loyihalar.

Adliya vazirligi ikki oy muddatda normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tartibga solish ta'sirini soddalashtirilgan va kengaytirilgan baholashdan o'tkazish uslubiyotini tasdiqlasin.

3. Amaldagi qonunchilik hujjatlarini qo'llash samaradorligini tahlil qilish, baholash faoliyatini kompleks tashkil etish va bu borada joriy etilgan institutlarning o'zaro bog'liqligi hamda ta'sirchanligini oshirish maqsadida 2025-yildan boshlab quyidagilarni nazarda tutuvchi tartib joriy etilsin:

a) ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi, huquqiy normalarni belgilovchi normativ-huquqiy hujjat kuchga kirgandan so'ng:

normativ-huquqiy hujjatni qabul qilish maqsadlariga erishilishini tahlil qilish, uning ijosini ta'minlash hamda baholash uchun statistik ma'lumotlarni yig'ish maqsadida har yili mas'ul davlat organi tomonidan monitoring olib boriladi;

normativ-huquqiy hujjatni qabul qilish maqsadlariga erishilganligi va samaradorligini aniqlash maqsadida qonunosti hujjatlari har uch yilda mas'ul davlat organi tomonidan baholashdan o'tkaziladi;

qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatda uning monitoringi va baholashdan o'tkazilishiga mas'ul bo'lgan davlat organi ko'rsatiladi;

qabul qilingan normativ-huquqiy hujjat monitoringi va baholash natijalari majburiy ravishda Adliya vazirligiga taqdim etiladi hamda mas'ul davlat organining rasmiy veb-saytida e'lon qilib boriladi;

b) qonunchilik hujjatlarining huquqiy monitoringi tartibga solish ta'sirini baholash doirasida o'tkaziladi;

v) qonunchilik hujjatlarining tartibga solish ta'sirini baholash hamda korruptsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish bo'yicha kompleks reja (keyingi o'rinalarda — kompleks reja) har yili Adliya vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi;

g) kompleks reja ijrosi bo'yicha Adliya vazirligi hisoboti Vazirlar Mahkamasi va Prezident Administratsiyasiga taqdim etib boriladi.

4. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining ekspertlar bilan keng muhokama qilgan holda ishlab chiqilishini ta'minlash maqsadida:

a) normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda, shu jumladan, baholashda, ma'lumot yig'ish (so'rov, fokus guruh muhokamalari va boshqa) jarayonlariga ilmiy tashkilotlar hamda nodavlat notijorat tashkilotlari keng jalb qilinadi;

b) 2024-yil 1-oktabrdan boshlab: davlat organlari tomonidan qonun loyihalari bo'yicha ushbu sohadagi davlat ekspertlik ilmiy-tadqiqot muassasalari xulosalari majburiy ravishda olinadi, qonunchilik hujjatlarini o'zaro muvofiqlashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish hamda o'z kuchini yo'qotgan deb topishni nazarda tutuvchi loyihalar bundan mustasno;

davlat ekspertlik ilmiy-tadqiqot muassasalari xulosalari va muhokama natijalari bo'yicha materiallar loyihani Adliya vazirligi hamda hujjatni qabul qiluvchi organlarga kiritishda majburiy tartibda ilova qilinadi.

5. Adliya vazirligi Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti bilan birgalikda ikki oy muddatda normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ilmiy ekspertizadan o'tkazish tartibini Vazirlar Mahkamasi qabul qiladi.

6. Normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini baholash va korruptsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazishda respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi tuzilmasida Bosh vazir kotibiyati tarkibida 3 ta shtat birligidan iborat Tartibga solish ta'sirini baholash

va korruptsiyaga qarshi ekspertiza bo'limi (keyingi o'rinalarda — Bo'lim) tashkil etilsin. Bunda Bo'limning shtat birliklari Adliya vazirligi tizimidan 2 ta shtat birligini hamda Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi tizimidan 1 ta shtat birligini maqbullashtirish hisobiga shakllantiriladi.

Quyidagilar Bo'limning asosiy vazifalari etib belgilansin:

normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini baholash va korruptsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish sohasida respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish;

normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining hamda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarining baholashdan o'tkazilishini va korruptsiyaga qarshi ekspertizasini amalga oshirish;

manfaatdor davlat organlari va tashkilotlari bilan birgalikda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar ijro etilishi holatining tanqidiy tahlilini amalga oshirish, natijasi bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlash va baholashdan o'tkazishning barcha bosqichlarida jamoatchilik muhokamasi o'tkazilishi yuzasidan monitoringni amalga oshirish;

qonunchilik hujjatlarida korruptsiyaga sharoit yaratuvchi normalarni aniqlash va bartaraf etish tizimining sifati hamda samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

7. Adliya vazirligi huzuridagi Qonunchilikni tahlil qilish va tartibga solish ta'sirini baholash instituti (keyingi o'rinalarda — Institut)ning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilansin:

ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish barqarorligini ta'minlash sohasida ilmiy tadqiqotlar o'tkazish, tartibga solish ta'sirini baholash siyosatini samarali amalga oshirish yo'nalishlarini ishlab chiqish;

qonunchilik hujjatlarini baholashdan o'tkazish orqali ijtimoiy munosabatlarni samarali va barqaror tartibga solish hamda

tartibga solish yukini kamaytirishga qaratilgan takliflarni ishlab chiqish;

qonunchilik hujjatlari va ularning loyihalarini baholash, ilmiy, huquqiy, korruptsiyaga qarshi va boshqa turdagi ekspertizadan o'tkazish bo'yicha uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish, mazkur yo'nalishlarda o'quv kurslarini tashkil etish;

qonunchilikdagi muammolarni tahlil qilish, huquqiy normalarning o'zaro bog'lanishi, kompleksligi va uyg'unligi monitoringini o'tkazish, qonunchilik hujjatlarini tizimlashtirish yo'nalishlarini belgilash;

yetaakchi xorijiy ilmiy-tadqiqot tashkilotlari bilan hamkorlikni jadallashtirish, xalqaro moliya institutlari va xorijiy donorlarning texnik ko'mak va grantlarini jalb qilish;

qonunchilik hujjatlari loyihalarini ishlab chiqish, ularni baholash, ilmiy, huquqiy va korruptsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish bo'yicha shartnoma asosida xizmatlar ko'rsatish.

Belgilab qo'yilsinki, Institut xodimlari mehnatga haq to'lash va moddiy rag'batlantirish shart-sharoitlari bo'yicha Adliya vazirligi markaziy apparati xodimlariga tenglashtiriladi.

Adliya vazirligi ikki oy muddatda Institut faoliyatini samarali tashkil etishni nazarda tutuvchi Hukumat qarori loyihasini Vazirlar Mahkamasi qabul qiladi.

8. Vazirlik va idoralar markaziy apparatlarida tuzilgan strategik rejalashtirish va metodologiya bo'yicha tarkibiy bo'linmalar zimmasiga quyidagi qo'shimcha vazifalar yuklansin:

tashkilotning norma ijodkorligi faoliyatiga "aqli tartibga solish" vositalarini keng joriy etish;

tashkilot tomonidan ishlab chiqilishi rejalashtirilayotgan qonunchilik hujjatlari loyihalari bo'yicha ma'lumotlarni shakllantirish va ularni Rejalashtirish dasturiga kiritish; normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini baholashdan o'tkazilishini ta'minlash, shuningdek, tashkilotning norma ijodkorligi faoliyatiga, shu jumladan, baholash yuzasidan uslubiy yordam ko'rsatish;

qonunchilik hujjatlari ijrosi monitoringini o'tkazish, shu jumladan, huquqni qo'llash

amaliyotini o'rganish, tahlil qilish, uning barqarorligini ta'minlash bo'yicha takliflarni ishlab chiqish.

9. Strategik rejalashtirish va metodologiya bo'yicha tarkibiy bo'linmalar, qoida tariqasida, tegishli soha mutaxassislari, iqtisodchi, huquqshunos mutaxassisligiga ega xodimlar bilan jamlanadi hamda ularning har ikki yilda kamida bir marta majburiy ravishda malakasini oshirish tartibi joriy etiladi.

Strategik rejalashtirish va metodologiya bo'yicha tarkibiy bo'linmalar xodimlari malakasini oshirishni tashkil etish Adliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

10. Belgilansinki, quyidagi xarajatlar respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining byudjetdan tashqari mablag'lari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi:

normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini baholashdan o'tkazish jarayoniga ilmiy tashkilotlar, maslahat xizmatini ko'rsatadigan tashkilotlar va soha ekspertlarini jalb qilish bilan bog'liq xarajatlar;

respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining baholash uchun mas'ul xodimlarining malakasini oshirib borish bilan bog'liq xarajatlar.

11. Davlat organlarining qonunchilik hujjatlar loyihalarini baholashdan o'tkazish faoliyati samaradorligini tahlil qilish, baholash, xodimlarni rag'batlantirish va kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan qonunchilik hujjatlar loyihalarini tartibga solish ta'sirini baholash reytingi (keyingi o'rinalarda — Reyting) joriy etilsin.

Reyting ushbu Farmonga 4-ildavada keltilgan baholash mezonlari asosida Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan Davlat organlari va tashkilotlarining qonunchilik hujjatlar loyihalarini baholash reytingini aniqlash uslubiyotiga muvofiq yuritiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Toshkent shahri,
2024-yil 16-avgust

12. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq:

Adliya vazirligi tomonidan har yili yil yakunlari bo'yicha Reyting aniqlanadi va ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi;

Reytingda dastlabki uch o'rinni egallagan davlat organlarining baholashga mas'ul xodimlari tegishli davlat organining byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan oylik mehnat haqi fondining uch baravaridan kam bo'lmagan miqdorda bir martalik moddiy rag'batlantiriladi;

Reytingi past davlat organlarining faoliyatini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar belgilanadi.

13. Adliya vazirligi (A.Tashkulov): mas'ul vazirlik va idoralarga mazkur Farmon talablarining amalga oshirilishi yuzasidan amaliy va uslubiy yordam ko'rsatib borsin;

2024-yil 1-noyabr qadar Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish va kelishishning yagona elektron tizimini ushbu Farmon talablari asosida takomillashtirishni ta'minlasin;

bir oy muddatda manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ushbu Farmonga 2-ilovaga muvofiq o'z kuchini yo'qotgan hujjatlar asosida qabul qilingan idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni xatlovdan o'tkazib, ularni o'z kuchini yo'qotgan deb topish choralari ko'rsin;

uch oy muddatda qonunchilikka ushbu Farmondan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida taklif kirit-sin;

ushbu Farmonning tartibga solish ta'sirini baholash va ijrosi monitoringi uchun mas'ul etib belgilansin.

14. Mazkur Farmonning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N.Aripov zimmasiga yuklansin.

SH. MIRZIYOYEV

Saylov — 2024

TRENERLAR MALAKA OSHIRDI



Boshlanishi 1-betda

Tadbirning ochilish marosimida uning mazmun-mohiyati va undan ko'zlangan natijalar xususida so'z yuritildi.

Markaziy saylov komissiyasi a'zolari va Toshkent davlat yuridik universiteti professor-o'qituvchilari o'tkazgan mashg'ulotlarda yetakchi oliy ta'lim tashkilotlari professor-o'qituvchilari orasidan shakllantirilgan 104 nafar respublika treneri qatnashdi.

Mashg'ulotlarda aralash saylov tizimi va uning o'ziga xos xususiyatlari, avvalgi saylovlarda yo'l qo'yilgan kamchiliklar va ularning oldini olish bo'yicha vazifalar, saylov komissiyalari tizimi va faoliyatining asosiy jihatlari bo'yicha ma'ruzalar tinglandi. Saylovchilar ro'yxati bilan ishlash, uchastka saylov komissiyalari joylashgan binolarni jihozlash, muddatidan oldin va saylov kuni ovoz berishni tashkil etish, ovozlarni sanab

Markaziy saylov komissiyasi a'zolari va Toshkent davlat yuridik universiteti professor-o'qituvchilari o'tkazgan mashg'ulotlarda yetakchi oliy ta'lim tashkilotlari professor-o'qituvchilari orasidan shakllantirilgan 104 nafar respublika treneri qatnashdi.

chiqish hamda saylov natijalarini chiqarish kabi mavzular yuzasidan fikrlashildi.

Markaziy saylov komissiyasi matbuot xizmati tomonidan tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda tayyorlangan mavzuga oid videoroliklar namoyish etildi. Tadbir qatnashchilari amaliy mashg'ulotlarda namunaviy shaklda jihozlangan saylov uchastkasida bevosita ovoz berishni tashkil etish, o'tkazish va ovozlarni sanab chiqish jarayonlarini amaliy jihatdan bajarib, o'zlashtirgan bilimini mustahkamladi.

Saylov komissiyalari a'zolari malakasini oshirish bo'yicha o'quv kurslarini yuqori saviyada tashkil etish va o'tkazish maqsadida malakali ekspertlar tomonidan o'quv rejalari muvofiq ma'ruzalar matni, topshiriq savollari, test, taqdimot, infografika, videodarslar ko'rinishidagi o'quv-uslubiy materiallar tayyorlandi. O'quv-amaliy mashg'ulotlarning barcha bosqichlari ushbu o'quv-uslubiy materiallardan foydalangan holda, interaktiv usullarda o'tkazildi.

O'quvlar yakunida tinglovchilarning treningda olgan bilim va ko'nikmalari test orqali sinovdan o'tkazildi.

Bahor XIDIROVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Tadbirkor minbari

SAYYOHLAR KO‘PAYISHI FAOLIYATIMIZ RIVOJIGA TURTKI BERDI

Shodiboy BOBOYEV,
Nurota tumanidagi “Sentob-Shaxi-Mustafo” xususiy korxonasi rahbari, “Faol tadbirkor” ko'krak nishoni sohibi

Nurota tog'larida shimoliy yonbag'rida joylashgan va qariyb uch ming aholiga ega Sentob qishlog'i qadim tarixi, madaniy merosi, o'timishi, milliy qadriyatlari va urf-odatlari bugungi kunga qadar saqlanib qolgani bilan alohida ajralib turadi. Qoyatoshlarga ishlangan V-VI asrlarga oid petrogliflar, tog' tepasidagi ko'hna qo'rg'on qoldiqlari, XI-XVIII asrlarga oid toshga o'yilgan yozuvlar hamda qishloqning eng yuqori nuqtasidagi Fozilmon ko'li diqqatga sazovor joylardir. Ayni vaqtda bu yerdan mahalliy va xorijlik sayyohlar qadami uzilmaydi.

2006-yilda qishlog'imizga kelayotgan sayyohlar uchun qulay sharoitlari yaratish maqsadida birinchilardan bo'lib uy-mehmonxonasi ochildi. “Sentob-Shaxi-Mustafo” xususiy korxonasini tashkil etdik.

Hozirgi kunda xorijlik va mahalliy sayyohlar dam olish bilan birga xalq amaliy san'ati durdonalaridan zavq olishi, milliy urf-odatlar, an'analar va taomlarimiz bilan tanishishi uchun barcha sharoitlarni yarataymiz. 50 o'rinni xostel va milliy taomlar oshxonasini ishga tushirdik. Har yili minglab sayyohlarga xizmat ko'rsatish imkoniga egamiz.

Jahon turizm tashkiloti Bosh Assambleyasining Samarqand shahrida bo'lib o'tgan 25-sessiyasi doirasida Sentob qishlog'i “Eng yaxshi turizm qishlog'i” deb e'tirof etilgani chekka bir hududning yangi imkoniyatlarini ochdi. Sayyohlar ogimi sezilarli darajada oshishi tadbirkorlikni yanada rivojlantirishga turtki berdi.

Turizm sohasidagi yangi yo'nalishlar ochilishi moliyaviy tushumlarni oshiradi, eng muhimi, milliy turizm brendini rivojlantirish yurtimiz imijiga ham ijobiy ta'sir o'tkazadi.

Ayni vaqtda Sentobda 20 dan ortiq oilaviy mehmonxona, ovqatlanish, hunarmandlik ustaxonalari va savdo rastalari

sayyohlarga xizmat ko'rsatmoqda. Aholining aksariyati ushbu yo'nalishda ish bilan band.

To'g'risi, eng chekka hududdagi tadbirkorlik faoliyatim el nazariga tushadi deb o'ylamagandim. 20-avgust — Tadbirkorlar kuni arafasida “Faol tadbirkor” ko'krak nishoni bilan taqdirlanganim hayotimdagi eng quvonchli va unutilmas voqealardan biri bo'ldi.

Hozir qishlog'imiz turizm salohiyatini yanada oshirish maqsadida 2 ta piyodalar ko'prigi, 2 ta selfi hudud, 3 ta sanitariya-gigiyena shoxobchasi, qishloqning ramziy kirish stelloji va turistik axborot markazi qurilgan. Mavjud 12 ta madaniy meros obyekti va diqqatga sazovor joylar, 15 ta tabiat manzarasi hududlarida obodonlashtirish ishlari bajarilib, turizm yo'nalishiga kiritildi. Qishloqqa Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Avstriya, Rossiya va boshqa davlatlardan sayyohlar tashrif buyurmogda. Bu yerga o'rtacha bir kunda 300, bir yilda esa qariyb 45 ming sayyoh kelmoqda.

Kelgusida ushbu yo'nalishdagi faoliyatimizni yanada rivojlantirishni rejalashtirganmiz. Berilgan yuksak mukofot bu maqsadlarimizni amalga oshirishimizda bizga yanada ishonch va shijoat bag'ishlaydi.



E'TIBORDAN KO'NGLIM TOG'DEK KO'TARILDI

Boxirjon TURDALIYEV,
Beshariq tumanidagi “Vodiy nasli parranda” fermer xo'jaligi boshlig'i,
“Mehnat shuhrati” ordeni sohibi

Boshlanishi 1-betda

Bizga Beshariq tumanidagi Sirdaryo sohillariga tutashgan hududdan 500 gektar kam hosilli ekin maydonlari ajratildi. Avvallari sotib olgan ozuqabop dukkakli ekinlarni endi o'zimiz yetishtiryapmiz. Shu maqsadda yangi texnika vositalari xarid qildik, ekin maydonlari meliorativ holatini yaxshilash maqsadida tomchilatib, yomg'irlatib sug'orish tizimlari o'rnatdik.

Germaniya texnologiyasi asosida tuxum va parhez go'sht yetishtirishni yo'lga qo'ydik. Mo'jaz seximizda tuxum yo'nalishida 82 mingdan ortiq parranda parvarishlanyapti. Bu yerdagi barcha ish jarayonlari avtomatlashtirilgan, muqobil energiya — quyosh panellari yordamida ishlaydi. Izlanishlarimiz bu bilan cheklanib qolayotgani yo'q. Istiqbolli loyihalar dasturiga ko'ra, joriy yilda tuxum yo'nalishida qo'shimcha tarmoq faoliyatini yo'lga qo'yish ustida ishlayapmiz. Buning hisobiga parrandalar soni 500 mingga yetadi.

Germaniyaning “Hermann” kompaniyasi texnologiyasi asosida parranda boqish tovuqlarning tuxum berish muddatini 18 oydan 23 oygacha uzaytiradi, tuxum berish darajasini 25 foizgacha oshiradi. Bitta tovuq sanoat usulida bir yilda o'rtacha 330-340 dona tuxum beradi. Yillik ishlab chiqarish quvvatlarimiz 60 million donadan ortdi.

Parrandachilik tumanimizning drayver sohasiga aylangan. Bu yo'nalishda ish boshlayotgan tashabbuskorlar safi kundan kunga ko'payib bormogda. Bularni hisobga olib, Germaniya texnologiyasi asosida jo'ja parvarishlab, aholi va boshqa turdosh korxonalarga yetkazib berishni yo'lga qo'yganimiz. Bundan tashqari, yangi ish o'rnlari yaratish va daromad manbalarini ko'paytirish maqsadida bog', issiqxona, baliqchilik va asalarichilik tarmoqlari tashkil qildik.



QISHLOQ XO'JALIGI: ILM VA INNOVATSIYA YAXSHI NATIJAGA ERISHISHNING ENG TO'G'RI YECHIMI

Bizning suhbat



Jahon miqyosida e'tirof etilgan paxta ishlab chiqarish zanjirini sertifikatlash organi — BCI ofisi tashkil qilindi. 2021-yilda Yevropa Ittifoqi O'zbekiston to'qimachilik mahsulotlariga tuzilma hududiga bojsiz olib kirishni ta'minlaydigan GSP+ savdo maqomini berdi. Natijada to'qimachilik va tikuvchilik mahsulotlari eksporti 2017-yildagi 1,2 milliard dollardan 2023-yilda 4 milliard dollargacha oshdi.

Boshlanishi 1-betda

Mamlakatimizda paxta yig'im-terimida bolalar mehnati va majburiy mehnatni bartaraf etishga qaratilgan ishlarim izchilligi samarasi o'laroq, 2021-yilda "Cotton Campaign" xalqaro koalitsiyasi tomonidan O'zbekiston paxtasiga boykot bekor bo'ldi.

Erkin raqobatni ta'minlaydigan bozor tamoyillariga asoslangan sohani sanoat asosida rivojlantirish, qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish va hosildorlikni oshirish maqsadida klaster tizimi yo'lga qo'yildi. Paxta yetishtirishda davlat buyurtmasidan voz kechildi. Paxta xomashyosi yetishtiruvchilarga rayonlashirilgan g'o'za navlarini erkin joylashtirish huquqi berildi.

2024-yildan boshlab paxta xomashyosi yetishtiruvchi xo'jaliklar va klasterlar o'rtasida uni yetkazib berish bo'yicha fyuchers shartnomalar tuproq hosildorligi normativlari doirasida Tovar-xomashyo birjasining paxta xomashyosi seksiyasida har bir hududda alohida o'tkaziladigan savdolar natijalariga ko'ra tuzilishi belgilandi.

Fyuchers shartnomaga muvofiq, yetkazib berilishi lozim bo'lgan hajmdan ortiqcha paxta xomashyosi yetishtiruvchilar tomonidan tadbirkorlik subyektlariga, qayta ishlaniishi hamda qayta ishlashdan olingan paxta tolasi va ikkilamchi mahsulotlar to'liq hajmda birja orqali sotilishi yo'lga qo'yildi. Bular sohadagi islohotlarga ayrim misollar, xolos. Vaholanki, bunday o'zgarish va o'sish o'zimizning paxtadan tayyorlangan qo'shimcha qiymatli mahsulotlar eksportida ham yaqqol ko'zga tashlanadi.

Hozirgi kunda O'zbekiston qishloq xo'jaligida ilmiy yo'nalishda qilinayotgan ishlarni qanday baholaysiz?

— Ushbu savolingizni ham 2017-2023-yillarda amalga oshirilgan ishlarga oid raqamlarni tahlil qilishdan boshlasak. Chunki sohadagi tub o'zgarishlarga poydevor ana shu yillarda qo'yildi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Mana shu muddat ichida paxta maydonlari 193 ming gektarga qisqartirildi. Ya'ni 2017-yildagi 1,2 million gektardan 2023-yilga kelib, 1 million 12 ming gektarga tushdi. Hosildorlik gektariga 24 sentnerdan 36,6 sentnerga yetkazildi. O'rta 12,6 sentner ko'paydi.

Hosildorligi past g'o'za navlari o'rmini serhosil, etarpishar, tola sifati yuqori, qurg'oqchilik hamda sho'rga chidamli navlar bilan bosqichma-bosqich yangilash maqsadida



esa keyingi 9-yilda 71 ta g'o'za navi yaratildi.

Respublika bo'yicha 2016-2024-yillarda jami 24 ta g'o'za navi davlat reyestriga kiritildi. Hududlarda har ikki yilda ekilayotgan navni to'la almashtirish, har yili tegishli nav urug'ini boshqa hududlardan olib kelish orqali urug' almashtirish va yillik qo'shimcha urug' zaxirasini yaratish maqsadida nav urug'ini yangilash hamda "tindirilgan urug'" ekish amaliyoti joriy qilindi. Bu yil 113 ming gektarga shunday usulda urug' ekilib, 200 ming gektar yerda urug'liklar yangilandi.

natijalarga erishilayotir. Bunda ayni paytda sohada faoliyat yuritayotgan

9 ta oliy ta'lim muassasasi, 21 ta ilmiy-tadqiqot instituti hamda 23 ta texnikum va 3 ta akademik litseyning hissasi bor, albatta.

Bugungi kunda sohadagi oliy ta'lim muassasalarida o'rta 45 ilmiy salohiyat 45 foizga yetgan. AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya, Italiya, Turkiya, Isroil, Latviya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy, Hindiston, Rossiya, Qozog'iston kabi davlatlardan yetakchi 158 xorijiy professor-o'qituvchisi

va mutaxassisi o'quv jarayoniga jalb etilgan.

Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish hamda sohada "ilmga asoslangan, amaliyotga yo'naltirilgan (science-based, practice-oriented) ta'lim" tamoyilini joriy etish maqsadida Buyuk Britaniya Qirollik qishloq xo'jaligi universiteti (Royal Agriculture University) bilan hamkorlikda Xalqaro qishloq xo'jaligi universiteti hamda O'mon Sultonligining "Atyab International Services" kompaniyasi ishtirokida Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti tashkil etildi.

Qishloq xo'jaligida ta'lim, ilm-fan, ishlab chiqarish hamda agroxizmat ko'rsatishning uzviy tizimini o'zaro bog'laydigan Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi (AKIS)da O'zbekiston — Vengriya kartoshkachilik ilmiy markazi, Dala ekinlari urug'chiligi milliy tadqiqot majmuasi, Mevasabzavotchilikda ilg'or texnologiyalar o'quv markazi, "Aqlli issiqxona" majmuasi va O'mon Sultonligi "Atyab International Services" kompaniyasining Oziq-ovqat xavfsizligi, sifat nazorati va xalqaro sertifikatlash laboratoriyalari faoliyat yuritmoqda.

Bundan tashqari, O'simliklar genetik resurslari ilmiy-tadqiqot instituti va Qishloq xo'jaligi ekinlari genetik resurslari milliy genbanki faoliyati yo'lga qo'yildi.

— **Keyingi yillarda O'zbekistonda qishloq xo'jaligiga e'tibor kuchaygani**



ortidan sohaning barcha tarmoqlarida hosildorlik ortib bormoqda. Xususan, joriy yilning 12-fevral kuni davlatimiz rahbari tomonidan qishloq xo'jaligida ishga solinmagan yangi zaxiralarni safarbar etish chora-tadbirlari muhokamasi yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida xorijdan serunum chigit va urug' olib kelish, dehqonlarni yangi agrotexnologiyalarga o'qitish, hosildorlikni paxtada 50 sentner, g'allada 100 sentnerga yetkazish mumkinligi aytilgan edi.

— Aslida, qishloq xo'jaligida ilmni faol qo'llash muvaffaqiyat garovi. Bizda ushbu masalaga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Ya'ni ushbu yo'nalishda qanday ish bajarilmasin yoki hujjat qabul qilinmasin, ularda ilg'or texnologiyalarga alohida urg'u beriladi. Chunki busiz nafaqat qishloq xo'jaligini, balki hech bir sohani rivojlantirib bo'lmaydi. Prezidentimizning 2022-yil 28-yanvardagi "Qishloq xo'jaligi ekinlari urug'chiligini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori shunday muhim hujjatlar sirasiga kiradi. Unga muvofiq, hududlarning tuproq-iqlim sharoitlaridan kelib chiqib, qishloq xo'jaligi ekinlari urug'liklarini yetishtirish bo'yicha 100 ming gektar maydon paxta urug'chiligiga ixtisoslashtirildi hamda



paxta urug'chiligi bo'yicha 47 ming gektar maydon qisqartirildi.

"O'zpxatasanoat" AJ tizimidagi 11 ta urug'lik chigit tayyorlash sexi Urug'chilikni rivojlantirish markazi balansiga o'tkazildi hamda "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish" loyihasi doirasida Jahon bankining 26 million dollar krediti yo'naltirilib, modernizatsiya qilinmoqda.

Urug'chilikni rivojlantirish markazi tizimida 51 ta elita urug'chilik xo'jaligi mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklida tashkil etilib, g'o'zaning 15 ta etarpishar va 3 ta o'trapishar navi birlamchi urug'chiligini ko'paytirish yo'lga



Sohadagi davlat boshqaruv organlari vakolatlari belgilandi. Qishloq xo'jaligi yerlarini yuridik va jismoniy shaxslarga ikkilamchi ijaraga berish amaliyoti joriy etildi. Tomorqa xo'jaligida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni erkin realizatsiya qilish huquqi kafolatlandi. Organik mahsulotlarga doir umumiy talablar belgilandi. Yerlarni yoki ularning qismlarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish tartib-taomillari ishlab chiqildi. Tuproqni muhofaza qilish va unumdorligini oshirish sohasidagi munosabatlarga tartibga solindi.

Davlatimiz rahbari farmon va qarorlari bilan qishloq xo'jaligi korxonalarini yetishtiradigan g'allani barcha iste'molchilarga, jumladan, donni qayta ishlovchi korxonalar, g'allachilik klasterlariga birja savdolari orqali yoki to'g'ridan to'g'ri shartnomalar asosida erkin narxlarda sotish belgilandi. Shuningdek, paxta xomashyosi yetishtirishda davlat buyurtmasi bekor qilinib, paxta xomashyosining xarid narxini belgilash amaliyotidan voz kechildi.

Paxta-to'qimachilik klasterlarni tashkil etishning huquqiy asoslari yaratilib, har bir hududda barcha paxtachilik klasterlariga fermer xo'jaliklari bilan shartnoma asosida faoliyat yuritishiga va fermer xo'jaliklariga ushbu klasterlar bilan paxta xomashyosini yetkazib berish bo'yicha ixtiyoriy ravishda fyuchers shartnomalar tuzishga ruxsat berildi.

Don yo'nalishida erishilayotgan yutuqlar ham quvonarli. 2024-yilda respublikamizning 1 million 12 ming gektar suvli maydonidan qariyb 9 million tonna yoki 2016-yildagidan 2,6 million tonna ko'p boshqoli don yetishtirildi. 2016-2023-yillarda boshqoli don ekinlari hosildorligini 25 sentner ko'paytirishga erishilgan.

2021-yil hosildan davlat tomonidan g'allaga xarid narxini belgilash amaliyotidan voz kechilib, boshqoli don ekinlari bo'yicha davlat xaridi to'liq bekor qilingani, ilk marotaba fermer va klasterlarga ajratiladigan kreditlarni erkin tasarruf etish huquqi berilgani, keyinchalik g'allaning davlat ehtiyojidan ortiq qismini birja savdolari orqali xarid qilish amaliyoti joriy etilgani tarmoq vakillari uchun katta yordam berdi. Don yetishtiruvchilarning manfaatdorligi ortdi. Qolaversa, donli ekinlar bo'yicha Qashqadaryoda Janubiy dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti, Jizzaxda Lalmikor dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti, Qoraqalpog'istonda Don va sholi ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi faoliyati yo'lga qo'yilgani tarmoqda yaxshi natijaga erishishga turki berdi.

Ilmiy muassasalar tomonidan seleksiya ishlari jadallashtirilib, hosildorlikni oshirish maqsadida biologik eskirgan navlar o'rni yangi serhosil, noqulay ob-havo sharoitlariga chidamli kuzgi bug'doy navlarining maydoni keyingi 5 yilda 585 ming gektarga kengaytirildi. Ilmiy asoslangan ilg'or agrotexnik tadbirlarni qo'llash hisobiga 2024-yilda 205 ming gektar maydon lazerli tekislandi hamda 300 ming gektarga zamonaviy don ekish seaykallari yordamida ekildi. 2019-2024-yillarda 86 ming gektar g'allamaydonida yomg'irlatib sug'orish texnologiyasi qo'llanildi. Natijada 142 million kub metr suv tejaldi. Zamonaviy seaykallarda ekish hisobiga 15 ming tonna urug'lik don iqtisod qilinishiga erishildi.

Agrar sohani rivojlantirish, islohotlarni chuqurlashtirish, raqobatbardosh, bozor va eksportga yo'naltirilgan sifati mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish maqsadida 9 ta ustuvor yo'nalishni qamrab olgan O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning

2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi qabul qilindi.

Qishloq xo'jaligida davlat boshqaruvini transformatsiya qilish va islohotlarni yanada chuqurlashtirishni jahon tajribasi asosida amalga oshirish bo'yicha xalqaro ekspertlar jalb etildi. Sohaning investitsion jozibadorligini oshirish yuzasidan Qishloq xo'jaligini transformatsiya qilishda ilmiy muassasalar faoliyatini takomillashtirish, mevasabzavotchilikni, klasterlar va kooperatsiyalarni yanada rivojlantirish uchun Jahon bankidan 500 million dollar, Yaponiyaning JICA agentligidan 200 million dollar, Qishloq xo'jaligini rivojlantirish xalqaro jamg'armasi (IFAD)dan 46 million dollar imtiyozli kreditlar jalb etildi. Umuman, bugunga kelib, mamlakatimiz qishloq xo'jaligidagi islohotlar barcha yo'nalishlarda qo'lga kiritilayotgan natijalarda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Hozir yurtimizda 20 ta xalqaro va milliy muvofiklikni baholash organi faoliyat yuritmoqda. Ular sohada "Organic", "Global G.A.P.", "FSSC 22000", "ISO standartlari" talablariga muvofiq sertifikatlashtirish ishlarni olib bormoqda.

E'tibor bergan bo'lsangiz, asosan, g'allachilik va paxtachilik yo'nalishidagi ishlarga to'xtalim. Vaholanki, qishloq xo'jaligining tarmoqlari ko'p. Chorvachilik, sholichilik, mevasabzavotchilik, polizchilik, parrandachilik, ipakchilik, tomorqadan foydalanish kabi yo'nalishlardagi islohotlar va natijalar ko'lam kam emas. Ularning har biri haqida alohida chiqishlar qilish mumkin. O'zbekiston agrar tarmog'idagi islohotlar barcha sohalarni qamrab olgan.

Zamon rivojlanib, bozorlar bog'liqliki mustahkamlanib, dunyo aholisi o'sishida davom etar ekan, qishloq xo'jaligi mahsulotlariga talab va ehtiyoj ham ortib boraveradi. Bugungi islohotlar esa ana shunday uzoq manzilli dasturlar bilan boyitilgani uchun ahamiyatlidir. Fursatdan foydalanib, bugun qishloq xo'jaligining haqiqiy egalari bo'lmish fermerlarimiz ta'limi, ilg'or xorijiy mamlakatlardagi hamkashlari bilan tajriba almashishi orqali zamonaviy yangiliklarni amaliyotga joriy qilish haqida ham to'xtalib o'tsam.

Qishloq xo'jaligida yoshlarni maktab davridan boshlab tarbiyalash va ularning sohaga qiziqishini oshirish maqsadida Buyuk Britaniya ta'lim tizimi asosida Xalqaro qishloq xo'jaligi universiteti huzurida ixtisoslashgan xalqaro maktab tashkil etildi.

Prezidentimiz joriy yil 11-12-iyul kunlari Farg'ona viloyatiga tashrifi davomida Farg'ona shahrida Lola Murotova nomidagi qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan kasb-hunar maktabini ochib berdi. Ushbu maktab agrar va oziq-ovqat sohasida o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlash, Lola Murotova tomonidan yaratilgan boy tajribani yoshlarga yetkazish borasida qishloq xo'jaligi yo'nalishida professional va oliy ta'limning o'zaro integratsiyasini ta'minlashga xizmat qiladi.

Soha islohotlari xalqimiz farovonligi, iqtisodiyotimizni yanada rivojlantirish, qo'shilgan qiymat yaratib, aholini barqaror narxlarda sifati oziq-ovqat mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlash, agrar tadbirkorlikning moddiy manfaatdorligi oshishiga xizmat qilmoqda.

**"Yangi O'zbekiston" muxbiri
Dilshod ULUG'MURODOV
suhbatlashdi.**

AKADEMIK MOBILLIK

ZAMONAVIY TA’LIM SIFATINI YUKSALTIRUVCHI OMIL

Taraqqiyot odimlari

Talabalarining ichki akademik mobillik orqali o‘qishini tashkil etish vakolatini oliy ta’lim muassasalariga o‘tkazish esa ular mustaqilligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Jahongir QARSHIBOYEV,
biologiya fanlari doktori, dotsent

Boshlanishi 1-betda

Ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarishning integratsiyalashuvi kadrlar tayyorlash tizimida katta imkoniyatlar yaratdi. Universitetlarning xalqaro reytingi oliy kasbiy ta’lim bozorida raqobatbardoshlikni aniqlashda muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Ta’lim xizmatlarining universitetlar darajasini aniqlash imkonini beruvchi xalqaro standartlari shakllantirildi.



Ayni paytda Markaziy Osiyo davlatlari oliy ta’lim tizimida ham katta o‘zgarishlar yuz bermoqda. Mutaxassislar fikricha, Markaziy Osiyo davlatlari oliy ta’lim tizimi eski uslubdagi oliy ta’lim tizimidan postindustrial davr oliy ta’lim tizimiga o‘tish bosqichida va bu jahon global tendensiyasiga mos keladi. Buning qator asosiy belgilari mavjud. Jumladan, ta’lim o‘qitish xizmatlari bozorida muayyan tovar ko‘rinishida namoyon bo‘lmoqda. U endi faqat bilimlar majmuasi bo‘libgina qolmay, jamiyat farovonligini oshirishda samarali ishtirok etish uchun zarur bo‘lgan, iste’molchi tomonidan sotib olinadigan mahsulot va ko‘nikmalarni shakllantirishga imkon beradigan omil o‘laroq yuzaga chiqdi.

Shuningdek, ta’lim iste’molchi sotib oladigan, bozorda qo‘llash mumkin bo‘lgan, transmilliy korporatsiyalar, tadbirkorlik tuzilmalariga aylantirilgan ilmiy muassasalar yoki boshqa ba’zi provayderlar sotib oladigan mahsulot yaratishga xizmat qiladigan ko‘nikmalar tizimini shakllantirish imkonini beradigan mutaxassis yetishtiruvchi tizimga aylandi. Bu global bozor qoidalari bo‘lib, ushbu obyektiv jarayon O‘zbekiston oliy ta’lim tizimiga ham, albatta, ta’sir qiladi.

Oliy ta’lim tizimi muhim o‘zgarishlarni boshidan kechirdi. Jumladan, OTMlar soni va qabul kvotasi oshishi natijasida yaqin yillarda bitiruvchilar o‘rtasida kuchli raqobat muhiti yuzaga kelishi kutilmoqda. Bunday vaziyat OTMlar oldiga ulkan vazifalar qo‘yadi. Shu tufayli jadal rivojlanayotgan jamiyat talablariga



javob beradigan munosib mutaxassislar tayyorlash vazifasi bugungi oliy ta’lim tizimi oldida turgan eng dolzarb masalalardan. 2020-yilda Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori bilan oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tkazish tartibi joriy qilindi. O‘quv jarayoniga kredit to‘plash va ko‘chirishning Yevropa tizimi joriy etilishini qator muammolar yechimi sifatida ko‘rish mumkin. Yangi tizim tufayli bir qancha qulayliklar vujudga keldi. Jumladan, talabalarda mustaqil ta’lim olish, fan va professor-o‘qituvchilarni tanlash, akademik mobillik dasturlari doirasida boshqa OTMda o‘qish, Yevropa davlatlari bitiruvchilari bilan raqobat qilish imkoniyati paydo bo‘ldi.

Mamlakatimizda OTM talabalari, o‘qituvchilari va ma’muriy xodimlarining akademik almashinuviga katta e’tibor qaratilmoqda. Bunga sabab akademik harakatchanlik O‘zbekiston universitetlarining xalqaro ta’lim makoniga integratsiyalashuv jarayonining muhim yo‘nalishlaridan biri ekanidir. Qolaversa, bu o‘qitish sifatini ta’minlashdagi shartlardan hisoblanadi. Uning qator asosiy yo‘nalishlari mavjud. Jumladan, talabalar, professor-o‘qituvchilar hamda rahbar kadrlar mobilligini oshirish maqsadida yetakchi OTMlar bilan ilmiy, akademik hamda iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirish choralari ko‘riladi. Yevropa kredit-modul tizimi talablari darajasidagi yuqori malakali kadrlar tayyorlashga erishiladi. Shuningdek, talabalar va professor-o‘qituvchilarning xalqaro hamkorlik loyihalaridagi ishtirokini jadallashtirish, xorijiy OTMlar bilan hamkorlikda qo‘shma ta’lim dasturlarini yo‘lga qo‘yish, ilmiy-



tadqiqotchilarning bir mamlakatdan boshqa mamlakatga ko‘chib o‘tishi asosiy tendensiyalardan. Bu obyektiv jarayon bo‘lib, aksariyat hollarda malakali mutaxassis moddiy jihatdan yaxshiroq rag‘batlantirilgani uchun yoki boshqa sabablarga ko‘ra ish joyini o‘zgartiradi. Kadrlarimiz muayyan muddatga chet elga ketib, yaxshi tajriba, yangi bilim, ko‘nikma va malaka orttirib, mamlakatga qaytsa va ishlasa, katta ijobiy natija berishi aniq. Bu vaziyatda pedagog xodimlarni adolati mehnat sharoiti bilan ta’minlash, xizmatini rag‘batlantirish hamda byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish choralarni ko‘rish lozim.

Yangi tashkil qilingan ta’lim muassasasi bo‘lishiga qaramay, Guliston davlat pedagogika institutida bu yo‘nalishda muayyan ishlarni qilinmoqda. Jumladan, OTMning salohiyatli professor-o‘qituvchilari akademik mobillik dasturi doirasida Buyuk Britaniya, Belgiya, Germaniya, Rossiya, Belarus, Qozog‘istondagi oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘ydi. Ichki mobillik doirasida ilmiy pedagogik jamoamiz O‘zbekiston Milliy universiteti, Toshkent davlat pedagogika universiteti kabi yirik oliy ta’lim muassasalari bilan aloqalarni mustahkamladi. O‘tgan yili sentabrda Guliston davlat pedagogika institutining ikki professor-o‘qituvchisi Turkiyaning Balikesir universitetida ilmiy stajirovkada bo‘lib qaytdi. Ularning safari Turkiya ta’lim tizimi bilan yaqindan tanishishga qaratilgan edi. Bu yil aprelda institutning to‘rt professor-o‘qituvchisi Qozog‘iston milliy universitetida ilmiy stajirovka o‘tab keldi. 4-11-may kunlari bir o‘qituvchimiz Belarus davlat pedagogika universitetidagi malaka oshirish kursida pedagogik sinflar tashkil qilish bo‘yicha Belarus tajribasini o‘rganib qaytdi. 15-19-may kunlari institutning bir dotsenti Qozon federal universitetining Filologiya va madaniyatlararo

aloqa institutida “Pedagogik sinflar faoliyatini o‘rganish” mavzusidagi seminar-treninglarda ishtirok etdi.

Akademik mobillik oliy ta’lim tizimida yuqori ko‘rsatkichga erishishning muhim omillaridan. Bu o‘quv muassasalarini bir-biri bilan solishtirish, muhim jihatlarni o‘zlashtirish va joriy etish orqali oliy ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Mobillik OTMlar tuzilmalari, davlat ta’lim standartlari, o‘quv rejalarni takomillashtirishga zamin yaratadi. Uning ishtirokchilari talabalar, oliy ta’lim muassasalarining akademik va ma’muriy personallari ta’limi mumkin. Aslida, xalqaro mobillik global mehnat bozori sharoitida kasbiy moslashish hamda ta’limni davom ettirish imkonini beradi.

Ichki akademik mobillik talaba va uning ota-onasiga qulaylik yaratadi. Masalan, bir talaba o‘zi yashaydigan joydan boshqa, uzoqroq hududdagi oliyog‘hga o‘qishga kirsa-da, borib o‘qishga, yotoqxonada yashashga imkoni bo‘lmasa, akademik mobillik asosida o‘z hududidagi OTMda muayyan muddat o‘qishi mumkin. Bunda muhim talab shuki, bilim sohasi, ta’lim yo‘nalishi va fanlar o‘zaro mutanosib bo‘lishi kerak. Talaba muayyan muddat o‘qigan haqidagi ma’lumotni asosiy o‘qish joyiga taqdim etadi. Tegishli fanlarni o‘zlashtirgan, kreditlarni to‘lagan holda asosiy oliyog‘hda tahsilni davom ettirishi mumkin.

O‘qitish sohasidagi islohotlar dolzarbligi hamda amaliy ahamiyati bilan boshqa jabhalardagi yangilanishlardan aslo qolishmaydi. Chunki bu davr talabi. Mamlakatimiz ta’lim tizimi xalqaro standartlarga integratsiyalashmoqda, samarali tajribalar amaliyotga tatbiq etilyapti. Maqsad ta’lim sifatini yaxshilash, o‘quv jarayonini bozor ehtiyojidan kelib chiqib tashkil etishga qaratilgan. Talabalarining ichki akademik mobillik orqali o‘qishini tashkil etish vakolatini oliy ta’lim muassasalariga o‘tkazish esa ular mustaqilligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Nuqtayi nazar

IZCHIL MULOQOT SAMARASI

Davlatimiz rahbarining tadbirkorlar bilan uchrashuvi an’anaviy tusga kirgani ishbilarmonlik yo‘lidagi ko‘plab muammolar yechimiga xizmat qilayotir. Bu jarayonda muhim ahamiyatga ega bo‘layotgan omil izchillikdir. Chunki xohlaymizmi-yo‘qmi, soha bir joyda deysinib turgan yo‘q. Dunyoga integratsiyalashuv teran va jadallashgani sari hal etilishi zarur bo‘lgan masalalar yuzaga qalqib chiqaveradi. Eng muhimi, jarayon izchil davom etib, muammolar bosqichma-bosqich bartaraf qilinmoqda. Buning uchun soha qozonida qaynayotgan odamlar bilan uchrashuv oldidan muloqotlar o‘tkazilib, ba’zi masalalar yo‘l-yo‘lakay yechimini topmoqda.



Nuriddin NURITDINOV,
“Hayat” klinikasi rahbari, tibbiyot fanlari doktori

2021-yil 20-avgustda Prezidentimizning tadbirkorlar bilan ilk ochiq muloqotida qatnashganim hamon esmda. O‘zim tibbiyot sohasi vakili bo‘lsam-da, xususiy klinikani rahbari, aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatayotgan ishbilarmon sifatida taklif etilgandim. Biroq so‘zga chiqib, taklif aytish imkoni bo‘lmagan. Oradan bir yil o‘tib, 2022-yil 18-martda davlatimiz rahbarining tibbiyot xodimlari bilan ochiq muloqotida mana shunday sharoit paydo bo‘ldi. Anjumanlar saroyida mingdan ortiq, hududlardagi studiyalarda 20 mingga yaqin tibbiyot xodimi, aholi vakillari ishtirok etgan uchrashuvda xususiy tibbiyotni rivojlantirish

bo‘yicha fikr-mulohazalarimni bildirdim. Kelgusida ko‘rib chiqish uchun takliflarimni aytdim. Shunday qilib, ularning maqbullari qonunchilik darajasida ma’qullanib, hayotga tatbiq etildi.

Birinchisi, oliy tibbiy ta’limdan keyingi ta’lim, ya’ni ordinaturani xususiy klinikalar bazasida ochish edi. Bu orqali OTMlarga tushadigan yuklamani kamaytirish barobarida xususiy klinikalar uchun zarur malakali kadrlar tayyorlash mumkin bo‘ladi. Prezidentimizning tegishli qarori e’lon qilingach, moddiy-texnik bazasi muayyan talabga javob beradigan xususiy klinikalarda klinik ordinatura ochildi. Jumladan,

men rahbarlik qiladigan “Hayat” tibbiyot markazida ham Sog‘liqni saqlash vazirligi tasdiqlagan namunaviy o‘quv dasturi asosida kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi. Keyinchalik unga zamonaviy mutaxassislar o‘rganishi kerak bo‘lgan boshqa zarur fanlarni ham qo‘shdik. Bugun kardiologiya, nevrologiya va urologiya yo‘nalishida mashg‘ulotlar o‘tilaypti. Asosiy e’tibor amaliyotga qaratiladi. Bundan tashqari, nomzodlar bepul ta’lim olishi uchun maxsus grantlar ajratiladi. O‘qishni tamomlagach, ular klinikamizda ishlashi mumkin. Prezidentimizning mana shu qo‘llab-quvvatlovi tufayli biz birato‘la ikkita muammoni hal qildik: kadrlar taqchilligini kamaytirish va malakali yosh mutaxassislarni ish bilan ta’minlash.

Ikkinchi taklifimiz xususiy tibbiyot muassasalariga yer solig‘i bo‘yicha imtiyozlar berishga doir edi. Davlatimiz rahbari buni ham inobatga oldi. Shunday qilib, sog‘liqni saqlash muassasalari egallab turgan yer (turizm zonasida joylashgan sanatoriy-kurort muassasalari bundan mustasno) soliq solinmaydigan yer uchastkalari ro‘yxatiga kiritildi. Mazkur chora sohada qulay ishbilarnonlik muhitini rivojlantirishga katta turki bo‘lmoqda. Chunki boshqa chakana ko‘chmas mulk obyektlariga qaraganda klinika barpo etish uchun katta yer uchastkasi zarur. Masalan, samarali faoliyat yuritadigan ko‘p tarmoqli klinika qurish uchun kamida 1000 kvadrat metr joy kerak. Tabiiyki, buncha yer maydoni uchun to‘lanadigan soliq summasi hazilakam pul bo‘lmaydi.

Shuningdek, uchrashuvda xususiy tibbiyot sohasiga doir qator masalalar yechimini topdi. Birinchi: mamlakatimiz hududida doimiy yashash joyiga ega bo‘lgan xorijiy fuqarolar hamda fuqaroligi bo‘lmagan shaxslardan davolash muassasalari tomonidan undiriladigan turistik (mehmonxona) yig‘im bekor qilindi.

Ikkinchi: 2025-yil 1-yanvargacha qadar xorijiy, yuridik shaxslar tomonidan, shu jumladan, lizing

shartnomalari bo‘yicha olib kiriladigan yangi tibbiy texnika, butlovchi qismlar, tibbiy texnika uchun ehtiyot qismlar va sarf materiallari uchun bojxona imtiyozlari berildi.

Uchinchi: tibbiyot uskunalarini va buyumlarining ehtiyot qismlari hamda tibbiy maqsadda ishlatiladigan sarflash materiallarini

Beshinchi: nodavlat tibbiyot tashkilotlarida tibbiyot oliy ta’lim muassasalarining klinik bazalari tashkil etilib, ularda shifokor va hamshiralar malakasini oshirish hamda qayta tayyorlashga ruxsat etilgan.

Oltinchi: “O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar



2025-yil 1-yanvargacha qadar mamlakatimiz hududiga olib kirishda qo‘shilgan qiymat solig‘i olinmaydi.

To‘rtinchi: 2022-yil 1-apreldan yuqori malakali va malakali mutaxassislar toifasiga kirmaydigan boshqa chet el fuqarosi bo‘lgan shifokorlarga yurtimiz hududida mehnat faoliyati yuritish huquqini beruvchi tasdiqnomaga berilganlik uchun yig‘im miqdori 6 barobar kamaytirildi.

kiritish to‘g‘risida”gi qonunga binoan, xususiy tibbiyot muassasalari tibbiy xizmatlarni realizatsiya qilish bo‘yicha aylanma soliqdan ozod etilgan.

Bugungi tibbiyot tizimidagi eng katta o‘zgarishlardan biri shuki, davlat shifoxonalarini bilan birga xususiy meditsina ham rivojlanmoqda. Hozir xususiy klinikalar deyarli barcha yo‘nalishlarda faoliyat yuritmoqda. Aholiga aniq tashxis qo‘yish va davolashda

davlat shifoxonalariga tushadigan yuklamani kamaytirishga ko‘maklashmoqda.

Davlat tibbiyot muassasalari va xususiy klinikalar o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash borasidagi muhim masala ma’lumotlarni raqamlashtirish bilan bog‘liq. Bu jarayon oilaviy poliklinikalarda to‘liq bajarilsa, xususiy tibbiyot muassasalari bilan ma’lumot almashish osonlashadi. Qayta ko‘rik va tahlillar ancha kamayadi. Odatda bemor haqidagi ko‘p tibbiy ma’lumotlar faqat qog‘ozda, ya’ni anketa daftarida mavjud. U anketani o‘zi bilan doim olib yur olmaydi. Shu bois, boshqa shifoxonaga borsa, sog‘lig‘i haqida ma’lumot yig‘ishga vaqt va ortiqcha pul ketadi.

Chet elda bu masala ID karta tizimini joriy etish orqali hal qilindan. Bemor qaysi shifoxonaga borishidan qat’i nazar, ID kartasini doim o‘zi bilan olib yuradi. Unda shaxsga doir ma’lumotlar, olgan emlanmalari, yillar davomida o‘tkazilgan tekshiruvlar natijasi, fuqaro chalingan kasalliklar, qilingan muolajalar, muayyan dorilarga ta’sirchanligi — hammasi elektron shaklda saqlanadi. Bizda esa bu ma’lumotlar oilaviy poliklinika arxivida turadi. Tabiiyki, bemorning qo‘liga berilmaydi. Shuning uchun ham bemor boshqa muassasaga borganida qiyinladi. Hamma tekshiruvdan boshqatdan o‘tishi kerak. Bu esa tor ixtisoslikdagi mutaxassislar ishlaydigan muassasalarda tirbandlikni oshiradi. Deylik, tor ixtisoslikdagi urologiya yoki ko‘z shifoxonasiga borsa, poliklinika tekshiruvlaridan o‘tish uchun bemorning bir-ikki kun vaqti ketadi. Vaholanki, kerakli ma’lumotlar anketasida mavjud. O’sha anketa raqamlashtirilsa, bu muammo yechiladi.

Bemor borgan barcha tibbiyot muassasalari ID kartaga kerakli ma’lumotlarni kiritib qo‘yadi. Masalan, rentgen tasviri, kompyuter tomografiyasi yoki laboratoriya tahlili natijasi — barchasi shunga kiritiladi. Tabiiyki, bu ma’lumotlar elektron bazada doim ko‘rinib turadi.

Moziydan sado

TEPAQO‘RG‘ON QATIGA

YASHIRILGAN TILSIMOTLAR

TARIXNING BIZ BILMAGAN SAHIFALARI OCHILMOQDA

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Qo‘qon shahridagi Tepaqo‘rg‘on yodgorligini topishimiz oson bo‘lmadi. Shahar markaziga yaqin hududda, atrofi ko‘p qavatli uy-joy va inshootlar bilan o‘rab tashlangan tepalik ko‘zga yaqqol ko‘rinmaydi. So‘rab-surishtirib bildikki, noyob va nodir arxeologik yodgorlik “Yalang‘och ota” mahalla fuqarolar yig‘ini hududida joylashgan ekan.

Hujra oldini supurib-sidirayotgan kichik jussali ayol Tepaqo‘rg‘on arxeologik yodgorligiga ko‘p qavatli uylar uchun qurilgan temir garajlar ortidagi eshikdan kirishimizni aytib, bizga yo‘l ko‘rsatdi.

Baland qum uyumlaridan hosil bo‘lgan, o‘t-o‘lan bosgan tepalikka qadam qo‘yar ekanmiz, tarix tilsimotlariga to‘la, hayot sir-sinoatlari yashiringan qadim maskan oldida bir zum o‘yga toldik.

Tepaqo‘rg‘on arxeologik yodgorligida olib borilgan qazilmalar, ilon izli so‘qmoq yo‘laklar osori atiqalar tomon yetaklayotgandek qo‘yo. Bu yerda arxeologik qazilma ishlari vaqtincha to‘xtatilgan uchun tepalik kimsasiz. Biron-bir nodir jismi bosib olmaslik, osori atiqalarga ozor yetkazmaslik ilinjida ohista qadam tashlaymiz. Dunyo talato‘plariga guvoh bo‘lgan qadim tepalik uzoq yillar tadjik etilmagan, yodgorlik haqida hech kimga lom-mim deyilmagan.

Baland o‘rkachli tepalikka ko‘tarilib, ko‘hna Qo‘qonga nazar solamiz. Obod maskanlar ko‘zga yaqqol tashlanadi. Ko‘ngilga xotirjamlik ingandek bo‘ladi. Uzoq yillar qarovsiz qolgan tepalik endi eski shahar hayot tilsimotlari haqida hikoya qiladigan ajib maskan, ochiq osmon ostidagi muzeyga aylanib borayotgani ko‘ngilga tasalli beradi. Beixtiror g‘ururlanasiz kishi! Bu bejiz emas, albatta.

Prezidentimiz joriy yilning 11-12-iyul kunlari Farg‘onaga tashrif chog‘ida viloyatning turizm halqasini yaratish, mahalliy va xorijlik sayyohlar oqimini ko‘paytirish borasida fikr bildirgan edi. Buning uchun sayyohlarni jalb etadigan muhit yaratilishi kerak. Shu ma‘noda, Tepaqo‘rg‘on arxeologik yodgorligini rekonstruksiya qilib, ochiq osmon ostidagi muzey tashkil etish taklifi ilgari surilgan. Bu xayrli ish keng jamoatchilik, tarixchilar tomonidan katta xursandchilik bilan qarshi olindi.

Manbalarda yozilishicha, Qo‘qon Markaziy Osiyoning qadimiy hamda nufuzli shaharlaridan

biri sifatida mashhur bo‘lgan. Adabiy muhiti, qog‘ozi, aravasi, o‘ymakorlik, naqqoshlik, kandakorlik, kitobat va xattotlik maktablari bilan shahar dovrug‘i olamga yoyilgan. Lekin qadim maskanning qachon tashkil etilgani haqida tadqiqotlar olib borilmagan, aniqlik ma‘lumotlar yo‘q edi.

— Shahar yoshini aniqlash bo‘yicha arxeologik tadqiqotlar — qazish ishlari



2008-yilda boshlandi, — deydi Qo‘qon davlat muzey-qo‘riqxonasi ilmiy xodimi Yahyoqon Dadaboyev. — Dastlab rekognossirovka, ya‘ni qaziladigan joylarni aniqlash ishlari o‘tkazildi. Shaharning mo‘g‘ullar bosqinidan so‘ng saqlanib qolgan to‘rt qo‘rg‘oni — Oqtepa, Kalvak qo‘rg‘on, Eskiyo‘rg‘on, Tepaqo‘rg‘on kabi joylari aniqlandi. Qo‘qonsoy va Oqtepasoy bo‘yidagi qaziladigan joylar belgilandi. Qazuv ishlari shahar janubidagi Mo‘yi Muborak yodgorligi hududidan boshlandi. Bir yillik tadqiqotlar asosida besh metr chuqurlikda uchta choh qazib ko‘rildi. Natijada besh yuz donadan ortiq arxeologik material — sopol idishlar, ularning parchalari, qayroq toshlar, tosh kelicha,



temir qurollarning parchalari va boshqa osori atiqalar topildi. Milodiy eraning birinchi asriga oid yirik inshootning poydevorlari ochildi. Qazuv ishlari shaharning yana bir qadimiy maskani — Tepaqo‘rg‘onda ham olib borildi. Bu yerdan ham ko‘plab idish-tovoq parchalari, mehnat va jangovar qurol bo‘laklari topildi. Idishlar yuqori darajadagi texnologiya asosida yaratilgan. Xususan, sopol idishlar bejirimligi, nafis shakli, yuqaligi, nozikligi bilan ajralib turadi. Ko‘rinadiki, ular yaxshi ishlangan, a‘lo sifatga ega. Demak, hunarmandchilik ancha taraqqiy etgan.

Topilmalardan o‘rin olgan kamalak o‘qining temir uchi tadjik etilganda, bu yerda metalsozlik va qurolsozlik taraqqiy etgan yirik aholi punkti bo‘lgani aniqlandi. Ularning yaratilgan davri milodiy eraning boshi va milodiy eradan avvalgi birinchi asrga oidlik tasdiqlandi.

Tepaqo‘rg‘onda olib borilgan qazishma ishlari shu bilan poyoniga yetgani yo‘q. 2011-yilda keng ko‘lamli arxeologik qazishmalar amalga oshirildi. Natijada bu yerda miloddan avvalgi birinchi va milodiy asr boshlarida urbanizatsiyalashgan qarorgoh shakllangani va arablar bosqiniga qadar faoliyat ko‘rsatgani ma‘lum bo‘ldi. Ochiqlar tarixiy qazilmalar konservatsiya qilgan. Shu bilan

birga, ushbu hududning bir qismi o‘tgan asrning 20-30-yillarida qatag‘on siyosatining “o‘lim tegirmoni”ga aylanib, kishi bilmas ko‘mbi yuborilgan hamyurtlarimiz xoklari borligi haqidagi ma‘lumotlar oshkor etildi.

— Mudhish qatag‘on yillarida bu joy qatlgohga aylangan. Qatag‘onga uchragan mahkumlar shu yerda qatl qilinib, yigirma-o‘ttiztalab shahid bitta chuqurga ko‘mbi yuborilgan. Shu tufayli bu joy o‘ziga xos xotira maskani deb hisoblash mumkin, — deya gapida davom etdi Yahyoqon Dadaboyev. — Bugunga qadar mash‘um tuzum qurboni bo‘lgan 16 nafar yurtparvar o‘g‘lonning nomi ma‘lum bo‘lgan,



xolos. Mazkur omillarni e‘tiborga olgan holda, bu maskan Qo‘qon davlat muzey-qo‘riqxonasi tarkibidagi muzey sifatida ta‘sis etildi. Muzey ekspozitsiyalarida qatag‘on siyosati va Qo‘qon arxeologiyasi haqida ma‘lumot berishga alohida o‘rin ajratilgan.

Arxeologik yodgorlikni ilmiy o‘rganish bilan bog‘liq ishlar bir zum bo‘lsa-da to‘xtatgani yo‘q. Ayni kunda Turkistondagi jadidchilik harakatining ko‘zga ko‘ringan namoyandalaridan biri, qatag‘on qurboni Ashurali Zohiriyning muzeyini shu arxeologik yodgorlik hududida tashkil etish borasida amaliy ishlar olib borilyapti. Bu ko‘hna Qo‘qon madaniy hayot tarzi, o‘tmishi va buguni haqidagi tasavvurlarni boyitish, yangi tadqiqotlar olib borish imkonini beradi.

— Tepaqo‘rg‘on arxeologiya yodgorligi shahar yoshini aniqlagani hamda qadimgi O‘rda o‘mida joylashgani bilan ahamiyatli. Ya‘ni bu yer Qo‘qon shahrining eng qadimiy asosi, — deydi Qo‘qon davlat muzey-qo‘riqxonasi Tepaqo‘rg‘on arxeologik yodgorligi filiali mudiri Gulruh Shodiyeva. — Tepaqo‘rg‘on yodgorligida olib borilgan qazish ishlari tadqilgan ashyolar asosida miloddan boshlab shahar tipidagi manzilgoh mavjud bo‘lgani aniqlandi. Madaniy qatlam tagigacha qazib chiqildi. Uning ostidan 65-70 santimetr qalinlikdagi agroirrigatsiya qatlami ochildi. Odatda ko‘pgina daryolarning oqizib kelgan yotqiziqlari bir yilda bir millimetrlar tashkil etadi. Asov So‘x daryosi esa katta tezlik bilan oqqani bois, o‘zani atrofini yuvib kelib, bir yilda ikki millimetr qalinlikda yotqiziq hosil qilgan. Demak, bu yerlarda milodiy eradan oldin yetti yuz yil mobaynida dehqonchilik ham qilingan. Muhimi, Qo‘qon milodiy era boshlarida nafaqat yirik shahar, balki chog‘roq bir davlat poytaxti bo‘lganini isbotlovchi dalil — o‘rda va qal‘a qoldiqlari topildi. Eranizning I asri arafasida Qo‘qon barcha shaharsozlik unsurlari bilan Tepaqo‘rg‘onda paydo bo‘lgan. Keyinroq, ya‘ni IV yoki V asrlarda Farg‘ona (Parkana) konfederativ davlati tarkibiga kiruvchi kichikroq davlat poytaxtiga aylanganki, shahriston va qal‘adagi inshoot qoldiqlari mavjud bo‘lgan qalin, mahobatli ostqurma (platforma) hamda qal‘a devorlari bunga guvohlik beradi.

1222-yilda mo‘g‘ul bosqinchilari Qo‘qonni qamal qilib, ololmaydi. So‘ng Sarqo‘rg‘ondagi to‘g‘onni buzib, shaharni sug‘ga bostiradi. Faqat to‘rtta qo‘rg‘on orolcha tarzida suv

sathidan ko‘tarilib turadi. Shu qo‘rg‘onlardan biri hozir Tepaqo‘rg‘on deb aytilayotgan Xo‘qandqo‘rg‘ondir. Bu qo‘rg‘on ostida shaharning qadimiy — ikki-ikkari yarim ming yillik qal‘a va o‘rdalari qoldiqlari borligi arxeologik tadqiqotlar asnosida aniqlandi.

Tarixchilarning shahodat berishicha, “Tepaqo‘rg‘on arxeologik yodgorligi” majmuasining umumiy maydoni 1,6 gektardan ortiqni tashkil etadi. Abdurahimbiiy 1733-yilda vafot etgach, taxtga ukasi Abdulkarimbiiy o‘tiradi. U o‘rdani shahar markazi — Chorsu maydoni yaqiniga ko‘chiradi. Bu yerda bir vaqtlar Qo‘qon xonlarining “Qal‘ai Raimbiiy” deb atalgan o‘rdasi joylashgan edi. Sobiq o‘rdani jiyani — Abdurahimbiiyning o‘g‘li Erdonabiya qoldiradi. Erdonabi yonlik taxtiga o‘tirgach, uni o‘g‘illari Dovudqulbek, Bekbo‘tabek va Boybo‘tabek ixtiyoriga qoldiradi. Ulartaxt uchun kurash qurboni bo‘lgach, bino sarbozxonaga aylantirilgan. 1815-yilgi zilzila paytida binoning bir qismi qulab tushadi, Sarbozxonaga boshqa joyga ko‘chirilib, o‘rni tashlandiq holatga keladi va faqat nomigina saqlanib qoladi. Asta-sekin bino xarobalari tekislanib, o‘rni qabristonga aylanadi va “Tepaqo‘rg‘on qabristoni” deb nom oladi.

— Prezidentimiz ziyorat xayrli ish, millat tarixini ziyorat qilish esa yanada ulug‘ ne‘mat ekanini ta’kidlagani bejiz emas, — deydi Qo‘qon universiteti rektori, professor Sherzod Mustafuqulov. — Davlatimiz rahbarining mazkur arxeologik yodgorlikni rekonstruksiya va konservatsiya qilib, “Ochiq osmon ostidagi muzey”ga aylantirish tashabbusi bu borada yangi imkoniyatlar eshiklarini ochdi. Xo‘qand milodiy era boshlarida nafaqat yirik shahar, balki kichik davlat poytaxti bo‘lgan. U haqda ko‘plab tarixiy manbalarida yozilgan. Qo‘rg‘on xarobaga aylangach, uzoq yillar davomida qabriston bo‘lgan. Bu yerda ko‘plab alloma, adib va mudarrislar dafn etilgan. Ushbu yodgorlik 2019-yilda moddiy madaniy meros obyektlari milliy ro‘yxatiga kiritilgan. 2022-yilda olib borilgan arxeologik qazuv ishlari natijasida yodgorlik arkining tuzilishi aniqlangan.

Moziyga qarab ish ko‘rmoq xayrli, deydishadi. Jahon hunarmandlari shahri sifatida e’tirof etilgan ko‘hna Qo‘qonga ko‘rk, salobat berib turgan qadimgi yodgorliklar va ulardan topilgan madaniy boyliklar tariximizning asl mohiyatini ko‘rsatishga xizmat qilayotgani bilan e’tiborni tortadi.

Mulohaza

Talabalar bilan ishlash, muloqot qilish menga hamisha qiziq, zavqli tuyulgan. Yoshlikning kuchi, shiddati, hatto adashishlari bilan odamni o‘ziga tortadi. Kasb taqozosi bilan talabalarga dars berishim tufayli ularga qarab, yoshligim, talabalik davrlarim esimga tushadi. Xuddi o‘z farzandimga qaraganday, ularga ham mehr, ham alag‘dalik bilan qarayman, imkon qadar ko‘maklashishga intilaman.

Nodira SAIDAHMEDOVA,
Nizomiy nomidagi
Toshkent davlat pedagogika
universiteti prorektori

Ammo... Bugungi kunning talabasiga, ayniqsa, o‘g‘il bolalarga qarab, ularning xatti-harakatini kuzatib turib, bir oz ranjnim ham. Ayni shu asnoda mashhur tarixnavis Gerodotning Misr ehromlarida yozilgan bitikni o‘qigani va uni bizgacha yozib-yetkazib kelgani yodimga tushadi: “Yoshlar buzilib ketyapti, nima qilmoq kerak? Eh, yoshlar...”. Shu bitikni o‘z ming yillar avval ehromning toshlariga yozilgan ekan. Buni Gerodot o‘qigan.

Demak, hamma davrlarda ham yoshi kattalar yoshlardan rozi bo‘lmagan ekan-da deyman va o‘zimga savolim ko‘payaveradi.

Biroq o‘g‘il bolalarning, talaba yoshidagi farzandlarimizning fe‘l-atvoridagi o‘zgarishlar meni bezovta qiladi.

Bunday deyshimga sabab bor, albatta. Bir oz oldin, talabalarimiz yozgi ta’tilga ketish arafasida katta yo‘l chetidagi bekat yonida turgan yigit bilan qizning suhbatiga tasodifan guvoh bo‘lib qoldim.



— Agar siz uydagilaringizga aytisangiz, rozi bo‘ladi-ku, — dedi qiz. — Hali 3-kursmiz. Toshkentda yashaymiz deb va‘dalashganmiz-ku?



— Men-ku aytaman, — chaynaldi yigit. — Lekin sen dadangga uy olishimiz zarurligini aytishing kerak. Bizda pul yo‘q! Dadangda pul ko‘p-ku...

— Bo‘pti. Dadam uy olib beradilar. Uyda turgan “Spark”ni ham menga beraman deganlar... — “Spark”? Atigimi? — Voy?..

Bu suhbatni boshqa tinglagim kelmay qoldi. Ichimda bir g‘ashlik turdi. “Tavba, yigit odam...”

Talabalik paytimizdagi bir voqea esimga tushdi. Bitta guruhda o‘qiydigan ikkita dugonam bilan kechki payt kutubxonadan chiqib, yotoqxonamizga shoshilibgina kelayotgan edik. Daraxtzorlar orasidan

o‘tgan yo‘lakda to‘rtta yigit kutilmaganda qarshimizdan chiqdi va yo‘limizni to‘tdi. Qo‘llarida tutgan pichoqlarining tig‘i chiroq shu‘lasida yaltirab ketdi. “Sumkadagi borini chiqarlar! Ziragingni yech...”, degan dag‘dag‘asidan qo‘rqib ketdik. Nima deyshini bilmay, doddashga tushdik. Shu payt daraxtzor orasidan ikkita yigit ko‘rindi. Ular bu yerdagi voqeadan xabar topgan zahoti haligi bezorilar bilan mushlashib ketdi.

Yigitlarning mushlashib qolganidan foydalanib, yotoqxonamiz tomon ura qochdik. Uzoqlasharkanmiz, haligi bizni qutqarib qolgan yigitlarning birovi shunday deb hayqirdi: — Qiz boladan narsa tilanishga uyalmaysanmi, ahmoq?!

qizlari ota nazoratidan bir oz chetda qolayotgani ham bor gap. Bu ham bo‘lsa, ularni kelgusida yigitlik mas‘uliyatidan chalg‘itayotgandek... Yigitlik mas‘uliyati, avvalo, oriyat, mardlik, vatan manfaat, degani. Avvallari qizlar harbiy xizmatga bormagan yigitdan sovcchi kelsa, tegmas edi. Bu ham o‘g‘il bolalarimizning tarbiyasiga jiddiy, ijobiy ta’sir qilardi.

Yaqinda qo‘shnimiz qizini uzatdi. To‘y kuni kuyov o‘z jo‘ralari bilan zamonaviy mashinada hovliga tantana bilan kirib keldi. Qizig‘i shundaki, kuyov va do‘stlari uchun bezatilgan katta xonaga kirgan paytda kuyov o‘z o‘rniga o‘rtimay, hammani xunob qildi. Dastlab qizning onasi, so‘ngra otasi ham o‘sha xonaga kirib, ul-bul narsalar va‘da qildi. Kuyovimiz so‘ng o‘z o‘rniga cho‘kkaledi.

Va‘da qilingan narsa nima ekan, bilasizmi? “Tracker” mashinasi. Ana sizga tayyor hangoma. Kulishni ham, yig‘lashni ham bilarmaysan kishi. Hashamatli mashinani minib, kerilib yurgan kuyovning kelin — ayolining oldida qanchalik nufuzi qolar ekan? Istaymizmi-yo‘qmi, bu ham o‘zimizning muammo, o‘zimizning maishiy masala! Buning yechimini ham o‘ylashimiz kerak, albatta.

Bir pedagog sifatida bu muammolarning tub negizida ta’lim va tarbiyaning o‘rni katta ekanini ko‘raman! Bog‘chadan, maktablarimizdan, qolaversa, oliy ta’lim dargohlaridan boshlab, farzandlarimizda oriyat tushunchasini, nomus tuyg‘usini uyg‘otib borishimiz zarur! Maktablarda o‘tiladigan “Chaqiriqqacha yoshlarni tayyorlash” fanini yanada chuqurlashtirishimiz juda muhim!

So‘zim avvalida tilga olganim — bekatdagi yigit va qizning suhbatlari kabi voqealarga qayta duch kelmasligimiz uchun ham o‘g‘lonlarimizga qaratilgan “Belindagi belbog‘ing qani, bolam?” Bu oriyat, nafsoniyat belbog‘i ekanini unutma! degim keladi.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarlari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Kolorpak” MCHJ mas‘ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 2574.
41126 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Offset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narsda.

“Kolorpak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O‘zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko‘chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Munajat Mo‘minova
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy